

government, as well as information systems in public administration of the Republic of Uzbekistan”.

3. Ozhgikhina, E.S. Advertising text: analysis of the concept of “benefit” in the tender aspect / E.S. Ozhgikhina // Communicative-functional description of language. - Ufa, 2015.-S. 163-169.

4. Patti, Ch. Advertising a decision making approach / Ch. Patti, Ch. Frazer. -N.Y., 2018.

5. Reis, A. Positioning: The battle for your mind/A. Reis, J. Trout. — N. Y., 2016.

6. Thompson, J.B. Studiers in the Theory of Ideology / J.B. Thompson // Cambridge, 1984.

7. Widdowson, H.G. Directions in the teaching of discourse / H.G. Widdowson // Theoretical Linguistic Models in Applied Linguistics. — London, 2013. P. 65-76.

8. Atakyan G.S. Tourist advertising as an object of linguistic analysis // Abstracts of the XXXV scientific conference of students and young scientists of universities of the Southern Federal District (January-March 2010).

9. Atakyan Gayane Samvelovna. Pragmatics of the language of tourism advertising: dissertation ... Candidate of Philological Sciences: 02.10.19 / Atakyan Gayane Samvelovna; [Place of protection: Adyghe. state University]. - Maikop, 2010.- 170 p.: ill. RSL OD, 61 10-10/504

## **METAFORA, METANOMIYA - MA'NO KO'CHISH USULLARINING O'ZBEK TILIDAGI TURLARI**

**Lobar USMANOVA**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*Ikkinci chet tili kafedrasi*  
*katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Bu maqola o'zbek tilidagi ma'no ko'chish uslublari, ularning turlari, tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan va ularga misollar ham keltirilgan. Ma'no ko'chish uslublari: metafora, metonomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik haqida malumotlar berilgan va misollar bilan yanada chuqurlashtirib berilgan. Shuning uchun ma'no ko'chish usullarining ta'lim fanida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Biroq, ularning o'rGANISHDAGI individual farqlarga qanday aloqasi borligi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Ushbu maqolada ma'no ko'chish usullarini o'rGANISHDA o'zbek xalq adabiyotididan, Dtm testlaridan, "Ritorika" asaridan foydalanigan va misollar tasnifi keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** metafora, metonomiya, sinekdoha, vazifadoshlik, korpus, meta, anoma, metaphore, sinekdohe, funksiyadoshlik.

Tilshunoslikda ko’p ma’noli so’zlarni vujudga keltiruvchi birdan-bir hodisa ko’chma ma’noning hosil bo’lish hodisasi deb ko’rsatiladi. Haqiqatda ham ko’chma ma’no hosil bo’lishi ko’p ma’nolikning yuzaga kelishi uchun asosiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ba’zi tilshunoslар ma’no kengayishi hodisasini ham ko’p ma’nolikning yuzaga kelishi uchun sabab bo’luvchi hodisalardai biri deb qaraydilar. Biroq bu fikrga qo’shilib bo’lmaydi. Chunki ko’p ma’nolikning yuzaga kelishi birdan ortiq leksik ma’noning hosil bo’lishi natijasi bo’lgani holda, ma’no kengayishi faqat birgina ma’noning ichki o’zgarishidir. Ular alohida semantik hodisalar ekani tilshunoslар tomonidan qayd etilgan.

Ko’p ma’noli so’z bir so’z hisobida birdan ortiq leksik ma’no yuzaga kelishi hisobiga vujudga kelgan bo’lsa, ma’no kengayishi esa faqat ma’lum ma’no doirasidagina sodir bo’ladi. O’sha ma’no anglatgan tushuncha doirasi kengayadi, uning yoniga yangi ma’noqo’shilmaydi. “Qoshlari kamон, kiprikлari o’q, labлari g’uncha, tishлari inju, oy yuzli, gulyuz, pariro’ybu kabi go’zal” so’zlarini faqatgina o’zbek adabiyotida ko’rishingiz mumkin. Chunki bu so’zlardan foydalanish bu kabi uslub o’zbek shoirlariyu, o’zbek yozuvchilariga hosdir. So’zlarda ikki xil ma’no turi mavjud bo’lib. Birinchisi o’z ma’no, ikkinchisi esa ko’chma ma’no deb yuritiladi. Birinchi ma’no turiga keladigan bo’lsak, o’z ma’no so’zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir manoni anglatsa bu o’z ma’noli so’z deyiladi.

Agar yakka holdagi ma’nosи bilan matn ichidagi ma’nosи ikki xil bo’lsa unda bu so’z matn ichida ko’chma ma’noda qo’llanayotgan bo’ladi. Qanday qilib so’zning o’z ma’noda va ko’chma ma’noda qo’llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda onson matn ichidagi so’larni yakka holda qo’llab ko’ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so’z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma’no anglatса o’z ma’noda qo’llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma’no anglatса ko’chma ma’noda qo’llanilayotgan bo’ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: “Sovuq niyyat qilma do’stim” degan gapdagi “sovuq” so’zini yakka holda qo’llab

ko’ramiz “sovuj” so’zi havoga, suvga nisbatan o’z ma’noda qo’llaniladi. “Sovuj niyyat”, “sovuj nafas”, “sovuj bashara” bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda “sovuj” so’zi o’z ma’nodan chiqib ko’chma ma’noda qo’llanilayotgan bo’ladi. “Bir sixga qornim to’yib qoldi” bu gapda esa “six” so’zini yakka holda qo’llab ko’ramiz: “six” so’zi yakka holda qo’llanganda six ya’ni temir narsa buyun ma’nolarini anglatadi va u yiyiladigan narsa emas bu so’z ham yakka holda qo’llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma’nolarni anglatyapti va matn ichida ko’chma ma’noda qo’llanilyapti. Mana so’zlarning ikki xil ma’nosini o’z va ko’chma ma’nosini va uni qanday qilib topishni o’rganib oldik.

Bizga ko’chma ma’nodagi so’zlarni topping degan savollar, testlar abituriyentlik paytlarimizdan boshlab bizni qiynaydi. DTM testlarida ham bu kabi savollar kam emas, shuning uchun ham ko’chma ma’nodagi so’zlarni va ularning turlarini mustahkam qilib o’rganishimiz zarurdir.

1. “Metafora - biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma’lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha” – deb ta’riflaydi John Stephen va o’rganadigan munosabatlarni quyidagi turlarga ajratadi:

- \* Tashqi o’xshashlik munosabati.
- \* Aloqadorlik munosabati.
- \* Butun va qism munosabati.
- \* Vazifadagi o’xshashlik munosabati.

Ma’no ko’chish usullari to’rt xil ular: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik. Bular ma’no ko’chish usullarining ketma- ketligi. Bundan tashqari ma’no ko’chishining kinoya, tag ma’no degan turlari ham mavjud. Bular haqida esa to’rt xil usullari haqida ma’lumot berilgandan so’ng to’xtalib o’tamiz.

Metafora - metaphor “ko’chirma” demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o’xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma’no ko’chishiga metafora deyiladi. Ko’proq tashqi o’xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko’chishi narsa va hodisalar o’rtasida nisbiy o’xshashlikka ko’ra bo’ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi

bo’lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma’no ko’chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun “qora niyat” bunda qora so’zida ma’no ko’chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo’lganda o’z ma’no bo’lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyyatni o’xshatganligi sababli metafora usulida ma’no ko’chadi. Xususan, Arastu bu atamani keng ma’noda qo’llagan. Faylasuf o’zining “Ritorika” asarida quyidagi fikrni ifodalaydi:“Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o’rinli foydalanish nutqni bezaydi”.

Metafora ko’proq quidagi vaziyatlarda qo’llaniladi:

1. Odam tana azolariga (qo’l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka).
2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak).
3. Hayvon, parranda va hashorotlarning biror azosi (qanot, dum, tumshuq, shox).
4. O’simlik va uning qismi (ildiz, tomir).
5. Qurollar (nayza, pichoq).

Metanomiya “meta” - qayta, “anoma” - nom deganidir. Predmet narsa va hpdisalarning bog’lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko’chirish tufayli yuzaga keladigan ma’no ko’chishi metonimiya deyiladi. Bunday ma’no ko’chishiga tashqi va ichki o’xshashliklar hissobga olinmaydi balki, so’z ma’nolarining bir-biriga bog’liqligi hisobga olinadi. Metonimiya aloqa yuzasidan ma’no ko’chish turi hisoblanadi. Bu ma’no ko’chish turini ham avvalgilardek avval ma’nosi ko’chgan so’zni topamiz so’ng u so’zni qanday ma’nosi ko’chganligini aniqlaymiz agar tashqi ko’rinishi o’xshash bo’lsa metafora, aloqa yuzasidan ma’no ko’chsa metonimiya bo’ladi.

Sinekdoxa “sinekdohe” - birga anglamoq, ma’no ko’chish usuli deganidir. Butun orqali qism, qism orqali butunni ifodalash asosida so’zlardagi ma’no ko’chish usuli sinekdoxa deyiladi. Masalan: “qo’limni kesib oldim” deganda, qo’limni deb barmog’ini nazarda tutmoqda, barmoq qo’lning qismi bo’lganligi uchun ya’ni butun orqali qismni anglatmoqda, “tuyoqlarni ko’paytiramiz” bu gapda esa tuyaq deb hayvonlarni nazarda tutmoqda, tuyaq hayvonning qismi bo’lganligi uchun qism orqali butunni nazarda tutmoqda, yoki bo’lmasa “eshikka kirin mehmon bir

chaqchaqlashamiz” bu gapda ma’nosи ko’chgan so’z “eshik” so’zi bo’lib, bu gapda “eshikka kirin” deb uyini nazarda tutmoqda. Eshik uyning qismi bo’lganligi uchun bunda ham qism orqali butun nazarda tutilmoqda.

Sinekdoxa quyidagi munosabatlarga ko’ra ma’no ko’chadi.

1. Tana a’zolari orqali. (O’n qo’lingni og’zinga solma.)
2. Kiyim va uning qismlari orqali. (Hisobida adashgan cho’ntagidan ayrilar.)
3. Predmet, narsa, quroq. (Xamir uchidan patir.)
4. Hayvon parranda tana a’zolari. (Qizilishton (qush), tulki (tulki terisi).)
5. Daraxt va mevasi. (Namangonning olmasi hil hil pishibdi. (qo’shiq).)

Vazifadoshlik - funksiyadoshlik deganidir. Narsalar, buyumlar, predmetlarning vazifasi o’xhashiligiga asoslanib ma’no ko’chish turi vazifadoshlik deyiladi.

Vazifadoshlik bilan metaforani faqrlab olish juda zarurdir. Misol uchun metaforada ham vazifadoshlikda ham narsalar, predmetlarning o’xhashiligiga qaraladi, lekin metafora tashqi o’xhashlik bo’lsa vazifadoshlikda esa narsa, buyum, predmetlarning tashqi o’xshasbligiga emas balki faqatgina vazifasi o’xhashiligiga qaraladi. Misol uchun: “stolning oyog’i qiyshayib qoldi” bu gapda ma’nosи ko’chgan so’z “oyoq” so’zi bo’lib inson oyog’i bilan stolning oyog’ini vazifasi bir xilligi uchun vazifadoshlik bo’ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Aziza O., Sevara S. (2023). Ingliz tili me’yoriy talaffuz standartlarini o’qitish mezonlari. Involta Scientific Journal, 2(1), 138-141.
2. Shermamatova S., Tursunova M. (2022). The work currently being done to improve the quality of education is their effectiveness.
3. Shermamatova S., Odiljonova M. (2023). O’zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 91-97.
4. Shermamatova S., Umirjonova S. (2023). Ingliz va o’zbek tilida sinonim so’zlarning qo’llanilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 98-104.
5. O’zbek tili stilistikasi. T.: O’qituvchi, 1983.- B.246.
6. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.